


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60410500 – Bank ishi va auditi**  
**bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent**



**ISHLAB CHIQLIGAN:**

Toshkent moliya instituti.  
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	<i>60410500 – Bank ishi va auditi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
2.4.	Kvalifikatsiya.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

## **1. 60410500 – Bank ishi va auditi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60410500 – Bank ishi va auditi** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Bu ta’lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60410500 – Bank ishi va auditi ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **60410500 – Bank ishi va auditi** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60410500 – Bank ishi va auditi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60410500 – Bank ishi va auditi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60410500 – Bank ishi va auditi** – fan va iqtisod sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u davlat, aksionerlik, qo‘shma va xususiy tijorat banklarini boshqarish va nazorat qilish, auditdan o‘tkazish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo‘yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar yechimlarini banklarning rivojlanish qonuniyatlari hamda zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60410500 – Bank ishi va auditi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:**

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

- tegishli vazirlik va idoralar;

- tijorat banklari;

- nobank kredit tashkilotlari;

- byudjetdan tashqari jamg‘armalar;

- investitsiya va sug‘urta tashkilotlari;

- auditorlik tashkilotlari;

- aksiyadorlik jamiyatlari;

- davlat hokimiyati organlari;



- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari;
- birjalar;
- qo'shma korxonalar;
- moliya-bank sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar;
- moliya-kredit bozorlarida faoliyat yurituvchi muassasalar.

**1.2.3. 60410500 – Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv.

**1.2.4. 60410500 – Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60410500 – Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

– ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda moliya-bank tizimining rivojlanish tendensiyalari va ko'rsatkichlariga baho berish, uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va bu borada amalga oshiriladigan islohotlar mohiyatini tushunish hamda tadqiqot ishlarini ulardan kelib chiqqan holda amalga oshirish;

– ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy uslublarni qo'llay olish;

– mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-amaliy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish;

– ilmiy-tadqiqot natijalari va yangiliklarni amaliyotga tadbiq etish yuzasidan asoslangan takliflarni loyiha chifatida ishlab chiqish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

**Ishlab chiqarish faoliyatida:**

– bank faoliyati va u bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

– bank faoliyatida biznes-rejalarni ko'rib chiqish va loyiha samaradorligini baholash;

– moliya bozorida vositachilik qilish;

– bank mijozlarining to'lov qobiliyatini baholash usullarini bilish va qo'llash;

– bank sohasini rivojlantirish yo'nalishlarini tadqiq etish;

– banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;

– banklarning aktivlari, majubiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlari hamda ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha operatsiyalarning hisobini yuritish va hisobotlarini tayyorlash;

– moliya-bank sohasidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;

– iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

– bank tizimi faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;

– bank tizimidagi ko'rsatkichlar dinamikasi va o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish;

– bank faoliyatiga doir moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni tahlil qilish;

– bank xizmatlarini ko‘rsatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari vositalaridan foydalanish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.*

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- bank tizimida korporativ boshqaruv tartib va tamoyillarini bilish;
- moliya-bank tizimiga doir qonunchilikka muvofiq boshqaruv mezonlarini anglagan bo‘lish;
- bank ishi va auditini to‘g‘ri tashkil qilish va samarali boshqarishni amalga oshirish;
- bank tizimida moliyaviy boshqaruv va xodimlarni boshqarish strategiyalarini bilishi va amaliyotda qo‘llay olish;
- moliya-bank faoliyatidagi muammolarni yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- moliya-bank sohasining xalqaro hamda milliy mosligini monitoring qilish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.*

**2. 60410500 – Bank ishi va audit ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, raqamli platformalar, web saytlardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- bank-moliya sohasida faoliyatni tashkil etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- bank-moliya sohasiga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;
- mavzu bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy-texnik yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni to‘playdi va tahlil qilish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga qo‘llash;



- bank-moliya sohasi faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- bank-moliya sohasida jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish, ulardan foydalanish bilan bog'liq jarayonlar monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- bank-moliya sohasida faoliyat ko'rsatish va ular faoliyatining xalqaro hamda milliy talablariga mos kelishi borasida jarayonlarni nazorat qilish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- bank-moliya sohasining xalqaro hamda milliy mosligini monitoring qilish;
- bank-moliya sohasi faoliyatini rejalashtirish va uning samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlarini qidirib topish;
- bank-moliya sohasi faoliyatini boshqarishning zamonaviy muammolari va xususiyatlarini aniqlash, ular faoliyatini boshqarishning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- bank-moliya sohasi faoliyatini tashkil qilish, baholash va auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda zamonaviy metodlarni qo'llash;
- bank-moliya sohasida hujjatlarni rasmiylashtirish va umumlashtirish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda rasmiylashtirishda zamonaviy metodlarni qo'llash;
- bank-moliya sohasida jarayonlarni hisobga olishda, moliyaviy-xo'jalik faoliyati va audit ishi sifatini baholashda zamonaviy hisoblash vositalaridan foydalanish;
- bank-moliya sohasi faoliyatini tahlil qilish;
- moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanish;
- bajarilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha bank-moliya sohasining yutuqlarini hisobga olgan holda kasbiy yechish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zaruriy tayanch bilim va ko'nikmlarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

**2.3.1. 60410500 – Bank ishi va auditi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

<b>T.r.</b>	<b>O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari*</b>
<b>1.00</b>	<b>Majburiy fanlar</b>
1.01	O’zbekistonning eng yangi tarixi
1.02	Falsafa
1.03	Iqtisodiyot nazariyasi
1.04	Matematika
1.05	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar
1.06	O’zbek(rus) tili
1.07	Xorijiy til
1.08	Dinshunoslik
1.09	Bank ishi asoslari
1.10	Mikroiqtisodiyot
1.11	Statistika
1.12	Pul va kredit
1.13	Moliya
1.14	Moliyaviy hisob
1.15	Investitsiya
1.16	Bank ishiga kirish
1.17	Banklarda buxgalteriya hisobi asoslari
1.18	Iqtisodiy tahlil
1.19	Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari
1.20	Bank ishi
1.21	Banklarda buxgalteriya hisobi
1.22	Audit
1.23	Raqamli bank ishi
1.24	Bank auditi
1.25	Islom bank ishi
1.26	Bank nazorati
<b>2.00</b>	<b>Tanlov fanlar</b>
2.00	<i>Tanlov fanlar</i>
	Malakaviy amaliyot
	Yakuniy davlat attestatsiyasi

\* Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha semestrlar kesimida kreditlar miqdori “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”ga muvofiq Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya instituti tomonidan mustaqil belgilanadi hamda akademik mobillik jarayonida o’zaro tan olinadi.

**2.4. Kvalifikatsiya: bankir-iqtisodchi**



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 399-004.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

bank, bank tizimi, bank resurslari, kapital, ustav kapitali, zahira kapitali, depozit siyosati, nodepozit operatsiyalar, bank passivlari, bank aktivlari, kredit siyosati, kredit portfeli, diversifikatsiya, kredit potentsiali, banklararo kredit, kredit foizi, kredit monitoringi, kredit bahosi, mikrokredit, mikrolizing, kredit ob'ekti, kredit sub'ekti, kontokorrent, overdraft, revolver, kredit kartochkasi, likvidlilik, to'lovga layoqatlilik, investitsiya, qimmatli qog'oz, lizing, faktoring, repo, anderraying, trast, garov, foiz, bank daromadi, bank xarajatlari, bank foydasi, kreditga layoqatlilik, qisqa muddatli kredit, uzoq muddatli kredit, risk, valyuta, valyuta tizimi, valyuta mexanizmi, valyuta kursi, spot, forvard, fyuchers, opsion, svop, valyuta siyosati, revalvatsiya, devalvatsiya, valyuta intervensiyasi, bank o'tkazmasi, inkasso, xujjatli akkreditiv, chek, to'lov balansi, xalqaro kredit, valyuta inqirozi, bank hisobi, bank balansi, hisobvaraqa, majburiyat, bek-ofis, front-ofis, bank nazorati, bosh kitob, yordamchi kitob, valyuta kodi, nazorat kaliti, unikal kod, elektron to'lov tizimi, nostro, vostro, yagona vakillik hisobvarag'i, kassa, initsiator bank, benefitsiar bank, ssuda hisobvarag'i, inkassatsiya, inkassator, asosiy vosita, nomoddiy aktiv, amortizatsiya, inventarizatsiya, hisobot, bank auditi, auditor, ichki audit, tashqi audit, standart, auditorlik xulosasi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent moliya instituti

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti




Rektor

T.Z.Teshabayev

2023 yil

M.O'.



Rektor

K.A.Sharipov

2023 yil

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi



Direktor

Sh.Yakubov

2023 yil

M.O'.

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki

"Ipak Yo'li" aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki



Boshqaruvi

Raisi

o'rinbosari

T.Z.Raxmonov

2023 yil

M.O'.



Boshqaruvi

Raisi

o'rinbosari

M.A.Safarov

2023 yil

M.O'.



Toshkent moliya instituti 60410500-Bank ishi va auditi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va kadrlar iste'molchilari o'rtasida

## KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ ” \_\_\_\_\_ 2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.A.Sharipov, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruv raisi o'rinbosari T.Z.Raxmonov, “Ipak Yo'li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki Boshqaruv raisi o'rinbosari M.A.Safarov va Toshkent moliya instituti rektori T.Z.Teshabayev bilan birgalikda TMI va TDIUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60410500 – Bank ishi va auditi bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejaning ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3620-son, 2019 yil 31 oktyabrdagi “Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4503-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi PF-5992-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi F-31-son Farmoyishi hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent moliya instituti rektori

T.Teshabayev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

K.Sharipov

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat  
Xalq banki Boshqaruv raisi o'rinbosari

T.Raxmonov

“Ipak Yo'li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat  
banki Boshqaruv raisi o'rinbosari

M.Safarov